

## AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA CHET TILINI O'QITISNING ETODIKASINING SAMARADORLIGI

*Ishniyazova G. X.*

*mustaqil tadqiqotchi*

*Jaloliddin Manguberdi universiteti*

**Annotatsiya.** Ta'lim jarayoniga zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to'g'ri, unumli foydalanish, ular orqali o'quvchida chet tiliga bo'lgan qiziqishni orttirish, o'qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug'iladi va talab ortadi. Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish sifatini ta'minlash, chet tillarida erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, chet tillarni o'zlashtirish orqali jahon ta'lim standartlariga javob beradigan yetuk kadrlarni tayyorlash yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotining maqsadlaridan biridir.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ metodologiya, frantsuz tilini o'qitish, an'anaviy va intensiv usul, til to'sig'i.

**Аннотация.** Внедрение в образовательный процесс современных коммуникационных технологий является важнейшим вопросом их целенаправленного и правильного, эффективного использования, через которые учащийся приобретает интерес к иностранному языку, повышает эффективность обучения. Благодаря этому появляется доступ к инновационным технологиям обучения и повышается спрос. В настоящее время обеспечение качества обучения подрастающего поколения иностранным языкам, коренное совершенствование системы подготовки специалистов, свободно владеющих иностранными языками, подготовка зрелых кадров, соответствующих мировым образовательным стандартам, посредством овладения иностранными языками, является одной из целей проводимой в стране образовательной реформы.

**Ключевые слова:** коммуникативная методика, преподавание французского языка, традиционный и интенсивный метод, языковой барьер.

**Abstract.** The introduction of modern communication technologies into the educational process is the most important issue of their purposeful and correct, effective use, through which the student acquires interest in a foreign language, increases the effectiveness of teaching. This gives access to innovative learning technologies and increases demand. Currently, ensuring the quality of teaching foreign languages to the younger generation, radically improving the system of training specialists who are fluent in foreign languages, training mature personnel who meet international educational standards by mastering foreign languages is one of the goals of the educational reform being carried out in the country.

**Keywords:** communicative methodology, teaching French, traditional and intensive method, language barrier.

Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish sifatini ta'minlash, chet tillarida erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, chet tillarni o'zlashtirish orqali jahon ta'lim standartlariga javob beradigan yetuk kadrlarni tayyorlash yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotining maqsadlaridan biridir. Til o'rgatishdagi imkoniyatlarni aniqlash va ularni yuzaga chiqarishda o'qituvchining bilimi, ijodkorligi, talabalarni o'z faniga nisbatan muhabbatini uyg'ota olishi, talaba bilan hamkorlik munosabatini o'rnatish hozirgi davr talabini taqozo etadi. Chet tillarini o'rgatishni yanada rivojlantirish, xalqaro standartlarga muvofiq umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari uchun chet tillarini yuqori darajada egallagan malakali o'qituvchilarni tayyorlash darajasi va sifatini yuksaltirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni ta'minlash maqsadida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga aytish joizki, har bir o'rganilayotgan tilning o'ziga xos qonun-qoidalari, sir-sinoatlari mavjud. Xalqaro standartlarga javob beruvchi yetuk mutaxassis kadr bo'lish uchun o'rganuvchidan tilning eng nozik qatlamlarini nazardan qoldirmaslik talab etiladi.

Dunyo aholisining ko'pchiligi ikki va undan ortiq tilda gaplasha oladi. Albatta, bu tillarning dastlabkisi o'zining ona tilisi bo'lib, ko'pchilik tilshunolar nafaqat o'rganilayotgan chet tilini, balki ona tilini o'zlashtirish uchun ham alohida sharoit yaratilishi kerak deb hisoblaydilar. Ta'kidlab o'tish joizki, xorijiy tillarni o'rganish borasida qilinayotgan islohotlar natijasida o'sib kelayotgan yangi avlod maktabgacha ta'lim muassasasidan tortib oliy ta'lim muassasasigacha ona tili va chet tilini bir paytning o'zida taqqoslab o'rganadilar.

Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta, kompyuter, player, CD disklersiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor

berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilishi va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. "Oliy ta'limga qamrov darajasini 2026- yilga qadar 10ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va THE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash", "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o'qishga yuborish ko'lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalarida o'qitish"ga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor berilmoqda<sup>1</sup>.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir. Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012- yil 10- dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytirdi<sup>2</sup>. Shuningdek, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq 2022/2023- o'quv yilidan boshlab, davlat ta'lim muassasalarining xorijiy tillar o'qituvchilari lavozimlariga ishga yangi qabul qilinayotgan talabgor kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim; 2022/2023 -o'quv yiliga qadar davlat oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar o'qituvchilari kamida S1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim; 2024/2025- o'quv yiliga qadar davlat oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan kasbiy fanlar (xorijiy tildan tashqari) o'qituvchilarining 50 foizi kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim; 2024/2025- o'quv yiliga qadar umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar o'qituvchilari kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim.

Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri xorijiy tillarni o'qitish orqali yosh avlodni ona-Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy g'urur, yuksak axloq va ma'naviyat, qadimiy va boy merosimizga iftixor tuyg'usi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdir. Jahon ta'lim tizimidagi tub islohotlar talabalarning chet tillarni mukammal o'rganishlari, barcha sohalarida chet

<sup>1</sup> 2022–2026 Yillarga moljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi

<sup>2</sup> Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida Toshkent sh. 2012yil10-dekabr, PQ-18755son

tilini bilgan holda o'zlarini namoyon eta olishlari uchun zarur shart- sharoit yaratib berish, ularning xorijiy tilda og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish muammolarini ilgari surmoqda.

Respublikamiz ta'lim tizimini isloh qilishda xorijiy tajribalarga asoslangan xalqaro standartlarga mos keluvchi o'quv dasturlari bilan muvofiqlashtirish oliy pedagogik ta'lim tizimini takomillashtirishga asos bo'ldi. O'zbekiston sharoitida milliy mintalitetimiz, urf-odatlarimizni inobatga olgan holda xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini tubdan isloh qilish davr talabidir. Bu borada 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida mamlakatimizda “...ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy qilish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish...”, kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi va talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlar auditoriyasi bilan ish olib borishda interfaol usullardan samarali foydalanish, ularga chet tilidan sifatli ta'lim bera olish, oliy ta'lim darajasini namunalni bosqichga olib chiqish va tubdan takomillashtirish asosiy vazifalar sifatida belgilandi.

Yurtimizda ham mustaqillik sharofati bilan chet tillar o'qitilishiga alohida e'tibor berilmoqda. Minglab chet tili o'qituvchilari tayyorlanganligi, kadrlarning ona vatanimizda va xorijda malaka oshirishlari uchun barcha sharoitlar yaratib berilganligi, ingliz, nemis, fransuz tillari bo'yicha multimediyada darsliklari, ingliz tilini o'rganish bo'yicha elektron resurslar tayyorlanganligi, ta'lim muassasalarida zamonaviy lingafon xonalarining tashkil etilganligi buning yaqqol isbotidir. Yosh avlodni chet tillariga o'qitish hamda shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirish negizida, yoshlarning jahon tamadduni yutuqlari hamda butun dunyo axborot resurslaridan foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Chet tilini o'qitish maqsadlari jamiyat talabi, ijtimoiy buyurtmasi, sharoiti, siyosatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Chet tili o'qitish maqsadlari jamiyat taraqqiyotiga va rivojlanishiga bog'liq. Oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitish o'z maqsadlariga ega, chet tilidan ta'lim berayotgan barcha murabbiylar, albatta, uni oldindan aniqlab olmog'i darkor. Zero, olimlar O'.Hoshimov va I.Yoqubov “Ingliz tili o'qitish metodikasi” kitobida aytganidek, ‘chet tili o'qitish maqsadlari o'qitish mazmunini, vositasini, metodlarini, tamoyillarini aniqlaydi’ Talabalar oliy ta'lim muassasasini tugatayotganlarida inglizcha fikrni og'zaki, yozma qabul qila olishi, tushunaolishi va og'zaki, yozma ravishda bayon qila olishi talabqilinadi. Tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida dars soatlarining soni shu muassasalarga oid dasturlarda beriladi. Nofilologik ta'lim muassasalarda chet

tillari maxsus dastur vadarsliklar asosida o'qitiladi. Bunday ingliz tili maxsus nofilologik ta'lim muassasalarimiz uchun hali dastur va darsliklarishlab chiqilmaganligi uchun o'zbek tilida o'qitiladigan bunday ta'lim muassasalarida o'qituvchilar o'zlari yo'nalishning xususiyatinihisobga olib, turli xil darsliklar, qo'llanmalarni tanlab foydalanmoqdalar. O'qitish mazmuni metodikaning muhim masalalaridan biridir. Hozirgi davrda tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida chet tili o'qitishmazmuni deganda: talabalar oladigan tarbiyaning maqsad va vazifalari bilan aniqlanadigan bilimlar, materiallar, mashqlar va ko'nikmalar xususiyatihamda hajmi tushuniladi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishimizda bo'lajak defektloglarga ingliz tili akt yordamida o'rgatishni maqsad qilib oldik. Chet tili o'qitilayotgan vaziyat, sharoit, oliy o'quv yurtlari talabalari va ularning tanlagan sohalariga mos, oson, qulay metod, yo'l, usul, tizim, tamoyil, vosita, mashqlarni izlash va tanlay bilish, qo'llashdir. Optimallashtirish turli tipdagi oily o'quv yurtlari uchun o'ziga xosdir, chunki dars soatlari turlicha bo'ladi, talabalarning ona tili xususiyatlari ham turlicha ta'sir qiladi. Hozirgi davr kommunikativ malaka, kunikma chet tilida ma'lumot berish (gapirish, fikrni yozmabayon qilish orqali) va ma'lumot olish (o'qish, tinglab tushunish orqali) malaka va ko'nikmalarni yanada o'stirishni, ta'lim bilan tarbiyani birga olib borishni talab qiladi. Talabalar oliy ta'lim muassasasini tugatayotganlarida inglizcha fikrni og'zaki, yozma qabul qila olishi, tushunaolishi va og'zaki, yozma ravishda bayon qila olishi talabqilinadi. Tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida dars soatlarining soni shu muassasalarga oid dasturlarda beriladi. Nofilologik ta'lim muassasalarda chet tillari maxsus dastur vadarsliklar asosida o'qitiladi. Bunday ingliz tili maxsus nofilologik ta'lim muassasalarimiz uchun hali dastur va darsliklarishlab chiqilmaganligi uchun o'zbek tilida o'qitiladigan bunday ta'lim muassasalarida o'qituvchilar o'zlari yo'nalishning xususiyatinihisobga olib, turli xil darsliklar, qo'llanmalarni tanlab foydalanmoqdalar.O'qitish mazmuni metodikaning muhim masalalaridan biridir. Hozirgi davrda tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida chet tili o'qitishmazmuni deganda: talabalar oladigan tarbiyaning maqsad va vazifalari bilan aniqlanadigan bilimlar, materiallar, mashqlar va ko'nikmalar xususiyatihamda hajmi tushuniladi. O'quv predmetning mazmunini belgilashda asosan 2 ta umumiy talabni va ularning bir-biriga bog'liqligini esdan chiqarmaslik kerak:

1) tanlangan o'qitish mazmunini oldimizga qo'ygan maqsadimizga erishish yoki erisha olmasligimiz talabi;

2) shu bizning aniq, sharoitimizda tanlangano'qitish mazmunining talabalar tomonidan o'zlashtirish yoki o'zlashtira olmaslik talabi. Bu 2 tatalabni hisobga olib chet tili o'qitish predmetining mazmunini belgilash mumkin. Oliy ta'lim chet tillar dasturi loyihasida ingliz tili o'qitish mazmuni belgilab ko'rsatiladi. Hozirgi paytda oliy ta'lim muassasasi uchun chet tillari (ingliz, nemis, fransuz) bo'yicha til materiallari tanlab olingan. To'g'ri tanlangan mazmun maqsadga erishishda katta yordam beradi. Mazmunni tanlashda o'qitish maqsadi hisobga olinadi hamda u yetakchilik qiladi. Mazmun tanlanganda til materiallari bilan birga nutq namunalari

ham tanlanadi. Ular nutqni urgatishda asos bo'ladi. Mazmuni tanlashda o'qitish, o'rgatishni metodik tashkil qilish hisobga olinadi. O'qitish mazmuni, o'qitishning shart-sharoiti bilan bog'liqdir. Chet tili o'qitish maqsadi o'qitish mazmunining hajmiga ham ta'sir etadi. Hozirgi davrda chet tili o'qitishni tubdan o'zgartirishni ko'zda tutadi. Uning quyidagi 3 ta talabi bor. 1. Chet tili o'qitish ilmiy saviyasini va amaliyyo'nalishda bo'lishini oshirish; 2. Chet tili predmetining tarbiyaviy tomonini kuchaytirish; 3. Chet tili o'quv predmetini mustaqil egallash.

Birinchi talab 2 xil yo'l bilan amalga oshirilish mumkin.

1-yo'l. O'qitish mazmunini o'zgartirish.

2-yo'l. Chet tili o'qitish metodikasini qayta qurish.

Qayta qurishda hozirgi davrda javob bermaydigan eski metod, yo'lusullarni chiqarib tashlab ta'lim-tarbiya berish, o'qitish tizimini mukammallashtirishdir. Chet tili metodikasining ilmiy saviyasini oshirishilg'or tajribalarni ommalashtirish, lingvistikani, psixologiyani, pedagogika, psixolingvistika yangiliklari asosida metodikani qayta qurishdir. Chet tili o'qitishni amaliy yo'nalishda bo'lishi uchun o'quvchi, talaba diqqatini chet tili ustida mustaqil ishlash va malaka ko'nikmasiga qaratish lozim.

O'zbekiston Respublikasida ingliz tilini o'qitish tizimini tubdan isloh qilish vazifasi butun mamlakat pedagogik jamoasi va mutaxassislar oldiga qo'yilganligi, xorijiy tillarni o'qitishda uzluksizlik va uzviylik, ilg'or pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikasiya tizimlari, elektron va multimedia darsliklarini yaratish vazifalarini amalga oshirishni taqozo etayotgani, biroq aynan uzluksizlik va uzviylik, innovasion pedagogik va axborot-kommunikasion texnologiyalarini qo'llash va ular asosida zamonaviy ingliz tili darslarini loyihalashga bo'lgan ehtiyoj mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

#### Adabiyot ro'yhati

1. Азимов, Э. Г. Словарь методических терминов (теория и практика преподавания языков) [Текст] / Э. Г. Азимов, А. Н. Щукин. - СПб. : Златоуст, 2009.- 159 с.
2. Алексеева, В. В. Методика обучения переводу деловых писем с листа (китайский язык) [Текст] : дис. ... канд. пед. наук : 13.00.02 / В. В. Алексеева. — М., 2006. - 184 с.
3. Ананьев, Б. Г. О проблемах современного человекознания [Текст] / Б. Г. Ананьев. - М. : Наука, 2007. - 380 с.
4. Арапов, М. В. Квантитативная лингвистика [Текст] / М. В. Арапов. — М. : Наука, 2008.- 185 с.
5. Балабан, М. А. Отбор и распределение английского словообразовательного минимума для средней школы [Текст] : автореф. дис. ... канд. пед. наук : 13.00.02 / М. А. Балабан. - М., 2002. - 21 с.
6. Барышников, Н. В. Методика обучения второму иностранному языку в школе [Текст] / Н. В. Барышников. - М. : Просвещение, 2003. - 159 с.
7. Безденежных, М. Л. Формирование потенциального словарного запаса при обучении русскому языку как иностранному [Текст] / М. Л. Безде-

- нежных, И. М. Берман, В. Д. Бухбиндер // Русский язык за рубежом. - 2008.-№4.-С. 60-68.
8. Белотелова, С. И. Отбор словообразовательного минимума немецкого языка для неязыкового вуза [Текст] : автореф. дис. ... канд. пед. наук : 13.00.02 / С. И. Белотелова. - М., 2003. - 23 с.
  9. Umbetova, M. A., & Kubeysinova, U. T. (2022). Yosh basketbolchilarda kuch sifatini o 'yin mashqlari yordamida rivojlantirish. *International conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century*, 1(10), 111-116.
  10. Кубейсинова, У. Т. (2021). О влиянии баскетбола на организм человека. Инновационные направления массового развития физической культуры и спорта в современных условиях, 1(1), 51-55.
  11. Кубейсинова, У. Т. (2021). Специализированное развитие прыгучести и прыжковой выносливости баскетболистов, как важное условие обеспечения результативности бросков, выполняемых в прыжке. *Fan-Sportga*, (1), 35-37.
  12. Kadirova, O. K. (2022). Boshlang'ich ta'lim rivojlantirish muammolari va istiqbollari. *Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish*, 403(1), 18-19.
  13. Kadirova, O. K. (2022). Linguopoetics is an Important Research Field of Linguistics. *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*, 10(12), 756-759.
  14. Kadyrova, Z. Z.; Kadyrova, O. Kh. (2022). Lithosonyms Used in the Works of Alisher Navoi. *NeuroQuantology*, 12(20), 1907-1913.
  15. Кадирова, О. Х., Кадирова, З. З. (2022). Ўзбек терминологияси. Журнал филологических исследований, 1(2), 156-160.